



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar  
bazasi asosida shakllantirildi*




So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 23 802 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 19 771 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 38 693 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,9 foizni tashkil etdi.

## Korxona va tashkilotlar soni to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar (1-mart holatiga)



### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025-yil yanvar-fevral oyilarida)


2025-yil yanvar-fevral oyilarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 675 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Termiz tumanida (34 taga), Termiz shahrida (27 taga) va Bandixon tumanida (9 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni savdoda – 85 taga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11 taga va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 6 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


#### Hududlar kesimida soni (birlikda)

|     |                |
|-----|----------------|
| 175 | Termiz sh.     |
| 72  | Termiz t.      |
| 65  | Denov t.       |
| 46  | Jarqo'rg'on t. |
| 44  | Qumqo'rg'on t. |
| 39  | Sherobod t.    |
| 33  | Sariosiyo t.   |
| 33  | Qiziriq t.     |
| 31  | Sho'rchi t.    |
| 31  | Angor t.       |
| 30  | Oltinsoy t.    |
| 24  | Muzrabot t.    |
| 22  | Bandixon t.    |
| 15  | Uzun t.        |
| 15  | Boysun t.      |

#### Yillar kesimida soni (birlikda)



#### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025-yil 1-mart holatiga 23 802 tani tashkil etdi, ulardan 19 771 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 33,2 foiz, sanoat - 12,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 9,5 foiz, qurilish - 7,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Termiz shahrida - 17,5 foiz, tumanlardan Denov - 12,0 foiz, Jarqo'rg'on - 7,6 foiz, Sherobod - 7,1 foiz va Termizda - 6,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

4 167 Termiz sh.

2 852 Denov t.

1 813 Jarqo'rg'on t.

1 701 Sherobod t.

1 635 Termiz t.

1 610 Sho'rchi t.

1 575 Qumqo'rg'on t.

1 352 Sariosiyo t.

1 297 Angor t.

1 156 Uzun t.

1 113 Oltinsoy t.

999 Muzrabot t.

981 Qiziriq t.

969 Boysun t.

592 Bandixon t.

## Yillar kesimida soni (birlikda)

2025 23 802

24 036 2024

2023 26 347

28 871 2022

2021 26 002

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2 249

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi

2 999

Sanoat



1 864

Qurilish



7 912

Savdo



619

Tashish  
va saqlash

1 592

Yashash  
va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar

348

Axborot va aloqa



471

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish

5 748

Boshqa turlar

(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025-yil yanvar-fevral oyilarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 652 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 652 tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |     |              |    |
|----------------|-----|--------------|----|
| Termiz sh.     | 166 | Sariosiyo t. | 30 |
| Denov t.       | 61  | Oltinsoy t.  | 30 |
| Termiz t.      | 72  | Sho'rchi t.  | 30 |
| Jarqo'rg'on t. | 45  | Muzrabot t.  | 23 |
| Qumqo'rg'on t. | 43  | Bandixon t.  | 22 |
| Sherobod t.    | 36  | Uzun t.      | 15 |
| Qiziriq t.     | 33  | Boysun t.    | 15 |
| Angor t.       | 31  |              |    |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik  
xo'jaligi

61



Sanoat



70

Qurilish



37

Savdo



337

Tashish  
va saqlash



13

Yashash  
va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar



59

Axborot va aloqa



13

Sog'liqni saqlash  
va ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish



14

Boshqa turlar



48

2025

652

2024

659

2023

627

2022

947

2021

1 038

(2025-yil 1-mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-mart holatiga 19 871 tani tashkil etdi, ulardan 19 771 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 39,8 foiz, sanoat - 15,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 11,2 foiz, qurilish - 9,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 8,0 foiz, tashish va saqlash - 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,0 foiz, axborot va aloqa - 1,7 foiz, boshqa turlari - 9,9 foiz.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |       |              |       |
|----------------|-------|--------------|-------|
| Termiz sh.     | 3 600 | Sariosiyo t. | 1 034 |
| Denov t.       | 2 404 | Uzun t.      | 916   |
| Jarqo'rg'on t. | 1 534 | Oltinsoy t.  | 870   |
| Termiz t.      | 1 477 | Muzrabot t.  | 809   |
| Sherobod t.    | 1 450 | Qiziriq t.   | 800   |
| Sho'rchi t.    | 1 344 | Boysun t.    | 775   |
| Qumqo'rg'on t. | 1 281 | Bandixon t.  | 466   |
| Angor t.       | 1 111 |              |       |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog'lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2025-yil yanvar-fevral oyilarida savdoda yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 252 tadan 337 taga (o'sish 85 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 50 tadan 61 taga (o'sish 11 taga) ko'paydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)




## Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (18,1 foiz), Denov (12,1 foiz), Jarqo'rg'on (7,7 foiz), Termiz (7,4 foiz) va Sherobod (7,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
(2025-yil 1-mart holatiga)**


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sherobod (15,3 foiz), Denov (11,0 foiz) va Termiz (9,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni (birlikda)**



**Yillar kesimida soni (birlikda)**




(2025-yil 1-mart holatiga)

Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 12,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,4 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)



Ishlab chiqarish sanoati

2 811

96

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

71

21

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2025-yil 1-mart holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 24,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,4 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 896 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 61,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,6 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



4 844 Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2 228 Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

840 Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025-yil 1-mart holatiga)

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |     |
|----------------|-----|
| Termiz sh.     | 147 |
| Denov t.       | 95  |
| Sherobod t.    | 57  |
| Jarqo'rg'on t. | 51  |
| Sho'rchi t.    | 41  |
| Qumqo'rg'on t. | 37  |
| Qiziriq t.     | 37  |
| Termiz t.      | 34  |
| Oltinsoy t.    | 26  |
| Angor t.       | 23  |
| Muzrabot t.    | 18  |
| Sariosiyo t.   | 17  |
| Uzun t.        | 17  |
| Boysun t.      | 15  |
| Bandixon t.    | 4   |

2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:



- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 69,0 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 28,8 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni;

-havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,3 foizni tashkil etgan.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-mart holatiga 1 592 taga yetib, ularning 1 584 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,7 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,3 foiz ulushini tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida soni (birlikda)



#### Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

2025-yil 1-mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 67,5 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,3 foizni;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 30,2 foizini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



|                                                                                                                                                                                  |     |     |                                                                                                                                                                  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar                    | 135 | 100 | Aloqa                                                                       |
|  Noshirlik faoliyati                                                                          | 57  | 48  | Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat                              |
|  Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish | 5   | 3   | Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirish  |

(2025-yil 1-mart holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 402 ta yoki 85,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,0 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)

Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat

457

Yashash uchun joy  
bilan ta'minlangan  
holda parvarishlash

11

Yashash uchun joy bilan  
ta'minlanmagan holda  
ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

3




**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
(2025-yil 1-mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**




(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Yillar kesimida soni (birlikda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |     |              |    |
|----------------|-----|--------------|----|
| Termiz sh.     | 156 | Angor t.     | 24 |
| Termiz t.      | 66  | Muzrabot t.  | 21 |
| Denov t.       | 42  | Sho'rchi t.  | 21 |
| Jarqo'rg'on t. | 36  | Bandixon t.  | 17 |
| Qumqo'rg'on t. | 35  | Sariosiyo t. | 16 |
| Sherobod t.    | 32  | Boysun t.    | 13 |
| Qiziriq t.     | 31  | Uzun t.      | 5  |
| Oltinsoy t.    | 25  |              |    |

(2025- yil 1- mart holatiga)


Amaldagi 19 871 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025-yil 1-mart holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 11 788 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 39,3 foiz, sanoat – 12,8 foiz, qurilish – 12,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11,9 foiz.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)


|                |       |              |     |
|----------------|-------|--------------|-----|
| Termiz sh.     | 2 724 | Boysun t.    | 490 |
| Denov t.       | 1 245 | Qiziriq t.   | 486 |
| Termiz t.      | 1 053 | Sariosiyo t. | 462 |
| Jarqo'rg'on t. | 867   | Oltinsoy t.  | 455 |
| Sherobod t.    | 861   | Muzrabot t.  | 433 |
| Sho'rchi t.    | 754   | Uzun t.      | 317 |
| Qumqo'rg'on t. | 753   | Bandixon t.  | 267 |
| Angor t.       | 621   |              |     |

(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|              |    |                |   |
|--------------|----|----------------|---|
| Denov t.     | 10 | Jarqo'rg'on t. | 2 |
| Uzun t.      | 7  | Muzrabot t.    | 1 |
| Sariosiyo t. | 5  | Angor t.       | 1 |
| Sho'rchi t.  | 5  | Qumqo'rg'on t. |   |
| Termiz sh.   | 5  | Qiziriq t.     |   |
| Sherobod t.  | 3  | Oltinsoy t.    |   |
| Bandixon t.  | 2  | Boysun t.      |   |
| Termiz t.    | 2  |                |   |


(2025-yil 1-mart holatiga)

2025-yil 1-mart holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan. Denov tumanida – 669 ta, Termiz sh – 585 ta va Uzun tumanida – 414 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 1 997 ta, sanoat – 616 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 439 ta va qurilish sohasida – 379 ta.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |     |             |     |
|----------------|-----|-------------|-----|
| Denov t.       | 669 | Angor t.    | 251 |
| Termiz sh.     | 585 | Termiz t.   | 226 |
| Uzun t.        | 414 | Muzrabot t. | 226 |
| Sariosiyo t.   | 345 | Oltinsoy t. | 161 |
| Jarqo'rg'on t. | 340 | Qiziriq t.  | 141 |
| Sho'rchi t.    | 317 | Boysun t.   | 120 |
| Qumqo'rg'on t. | 293 | Bandixon t. | 81  |
| Sherobod t.    | 274 |             |     |

(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

**Yillar kesimida soni (birlikda)****Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)****Hududlar kesimida soni (birlikda)**


|                |   |             |   |
|----------------|---|-------------|---|
| Denov t.       | 7 | Sho'rchi t. | 3 |
| Sariosiyo t.   | 7 | Bandixon t. | 2 |
| Qumqo'rg'on t. | 7 | Uzun t.     | 2 |
| Jarqo'rg'on t. | 5 | Muzrabot t. | 1 |
| Termiz sh.     | 5 | Qiziriq t.  | 1 |
| Angor t.       | 5 | Sherobod t. |   |
| Termiz t.      | 4 | Boysun t.   |   |
| Oltinsoy t.    | 4 |             |   |

(2025-yil 1-mart holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra 3 407 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,1 foiz, sanoat – 24,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,0 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Denov – 13,6 foiz, Jarqo'rg'on – 9,3 foiz va Sherobod – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|                |     |              |     |
|----------------|-----|--------------|-----|
| Denov t.       | 463 | Sariosiyo t. | 208 |
| Jarqo'rg'on t. | 316 | Termiz t.    | 186 |
| Sherobod t.    | 296 | Uzun t.      | 175 |
| Termiz sh.     | 260 | Qiziriq t.   | 167 |
| Sho'rchi t.    | 259 | Boysun t.    | 150 |
| Oltinsoy t.    | 241 | Muzrabot t.  | 133 |
| Angor t.       | 228 | Bandixon t.  | 108 |
| Qumqo'rg'on t. | 217 |              |     |

(2025- yil 1- mart holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Oltinsoy (14,0 foiz), Denov (13,3 foiz) va Sherobod (9,7 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni (birlikda)****Yillar kesimida soni (birlikda)**

Oltinsoy t. 908

Denov t. 860

Sherobod t. 630

Sariosiyo t. 601

Qumqo'rg'on t. 557

Uzun t. 434

Sho'rchi t. 413

Muzrabot t. 408

Boysun t. 390

Jarqo'rg'on t. 343


Bandixon t. 302

Termiz t. 301

Angor t. 228

Qiziriq t. 105

Termiz sh. 2



6 292

Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va bu  
sohada xizmat ko'rsatishBaliq ovlash va  
akvakultura

190



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot  
(2025-yil yanvar-fevral holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2025-yil yanvar-fevral oyilarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘shish sur‘ati 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,1 martaga oshgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


|              |    |                |
|--------------|----|----------------|
| Termiz t.    | 23 | Qumqo‘rg‘on t. |
| Termiz sh.   | 17 | Angor t.       |
| Sariosiyo t. | 4  | Sherobod t.    |
| Qiziriq t.   | 2  | Jarqo‘rg‘on t. |
| Oltinsoy t.  | 1  | Sho‘rchi t.    |
| Uzun t.      | 1  | Muzrabot t.    |
| Denov t.     |    | Bandixon t.    |
| Boysun t.    |    |                |

(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 533 ta korxonalardan 64 tasi qo'shma korxonalar va 469 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

|              |     |                |   |
|--------------|-----|----------------|---|
| Termiz sh.   | 218 | Qiziriq t.     | 9 |
| Termiz t.    | 188 | Boysun t.      | 8 |
| Sariosiyo t. | 21  | Bandixon t.    | 6 |
| Uzun t.      | 16  | Jarqo'rg'on t. | 6 |
| Denov t.     | 15  | Sherobod t.    | 5 |
| Sho'rchi t.  | 13  | Qumqo'rg'on t. | 3 |
| Muzrabot t.  | 11  | Oltinsoy t.    | 3 |
| Angor t.     | 11  |                |   |

*2025- yil 1- mart holatiga*

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



(2025-yil 1-mart holatiga)

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Termiz shahriga - 40,9 foiz, tumanlar orasida esa Termiz - 35,3 foiz, Sariosiyo - 3,9 foiz va Uzunga - 3,0 foiz to'g'ri keladi.

qo'shma korxonalar soni

xorijiy korxonalar



( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.



**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari o'zaro birxillashtirildi.*





## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston  
Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz)  
rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik  
shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul  
olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: 55 451-80-00 (76-50)